



**Ilmiy amaliy  
jurnal  
№ 1 (03)  
2026**

**YANGI  
O'ZBEKISTON  
IQTISODIYOTI**

**“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil***

---

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI  
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI**

**1**

**ISBN 978-9943-5256-3-4**

**Toshkent – 2026**

MUNDARIJA

<b>Tursunov A.M.</b> O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
<b>Abdulazizov A.A.</b> Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
<b>Jurayev D.A.</b> Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga taʼsir etuvchi omillar.....	15
<b>Suyarov Sh.S.</b> Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
<b>Кариева Л.С.</b> Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
<b>Axtamov A.U.</b> Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka taʼsiri xususida.....	25
<b>Гафуров А.Б.</b> Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
<b>Абиткариев А.М.</b> Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
<b>Abdullayev D.G’.</b> Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
<b>Abdullayev M.G’.</b> Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
<b>Isakov A.Y.</b> Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
<b>Ashurova G.N.</b> Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
<b>Yo‘ldosheva M.F.</b> O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarining tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
<b>Қулматов А.А.</b> Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmi.....	61
<b>Babayev A.N.</b> Yoshlar bandligini taʼminlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
<b>Sharipov H.A.</b> Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
<b>Турдиева Я.</b> Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
<b>Vaxidov A.K.</b> Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
<b>Gaymatova D.G’.</b> Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
<b>Pardayev E.E.</b> Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
<b>Ibragimova S.A., Muradov Sh.D.</b> Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
<b>Адилов Б.Б.</b> Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
<b>Yoqubova Z.T.</b> Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi munosiblikni taʼminlashning konseptual asoslari.....	101
<b>Saidaxmedova N.I., Aripov A.S.</b> Oliy taʼlim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
<b>Abduvovyeva X.Sh.</b> O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarining aholi farovonligiga taʼsirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
<b>Умаров А.А.</b> Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш... <b>Shoraximova Z.N.</b> «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
<b>Умурзакова З.С.</b> Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
<b>Karimov X.O.</b> Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

<b>Aхунов М.А.</b> Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
<b>Ахмаджонов С.С.</b> Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
<b>Abdullayeva Sh.А.</b> Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralarini boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
<b>Дусанов С.М.</b> Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
<b>Мамаражобов А.С.</b> Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
<b>Nigmatova D.Z., Amanov E.G’.</b> Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalarida samaradorligiga ta’siri.....	157
<b>Ikromjonova M.U.</b> To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
<b>Madaminjonov A.O.</b> To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
<b>Jamoliddinova S.S.</b> Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
<b>Akbaraliyev A.E.</b> O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
<b>Эрматова С.И.</b> Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
<b>Maxsudov Sh.S.</b> To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
<b>Boyev X.I., Adilov B.B.</b> Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
<b>Raxmonova N.A.</b> Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
<b>Якубова Д.М.</b> Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
<b>Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y.</b> Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
<b>Matyoqubova D.O.</b> Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
<b>Rahmatullayeva F.</b> Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
<b>Mamajonov L.A.</b> Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
<b>Давруков Ф.У.</b> Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
<b>Убайдуллаева Н.Р.</b> Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
<b>Abdullayev A.A.</b> Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
<b>Alimov O.N.</b> O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
<b>Sultonov B.M.</b> Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
<b>Mamajonova N.A.</b> Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
<b>Sanaqulova A.</b> O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
<b>Nazarov N.N.</b> Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
<b>Toshpulatov A.M.</b> Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
<b>Sanaqulova A., Ochilova M.</b> Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
<b>Umarov I.Y.</b> Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

3. Li, Q., Shaw, J. D., & Tang, G. (2019). Employee turnover and firm performance: Large-sample archival evidence. *Management Science*, 65(12), 5667–5683.
4. Meier, K. J., & Hicklin, A. Employee turnover and organizational performance: Testing a hypothesis from classical public administration. *Journal of Public Administration Research and Theory*, 18(4), 2007. 573–590.
5. Park R., Shaw J. The neglected state of organizational-level turnover studies: A call for research. *Frontiers of Business Research in China*, 11(1), 2017. 1–19.

**UDK:338.4**

**TO‘QIMACHILIK KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI KALKULYATSIYA QILISHNING IQTISODIY MOHIYATI VA TARKIBI**

**ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ И СТРУКТУРА КАЛЬКУЛЯЦИИ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ НА ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ**

**ECONOMIC ESSENCE AND STRUCTURE OF COST CALCULATION OF PRODUCTION AT TEXTILE ENTERPRISES**

**Ikromjonova Mohinur Umidjon qizi** Andijon davlat texnika instituti  
1-kurs “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi magistranti

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada to‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati, uning tarkibiy qismlari hamda boshqaruv hisobidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, to‘qimachilik ishlab chiqarishiga xos bo‘lgan xom ashyo, mehnat va umum ishlab chiqarish xarajatlarini to‘g‘ri hisobga olish orqali mahsulot tannarxini aniqlash masalalari tahlil qilingan. Kalkulyatsiya usullarini qo‘llashda uchraydigan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** mahsulot tannarxi, kalkulyatsiya, to‘qimachilik korxonalari, ishlab chiqarish xarajatlari, boshqaruv hisobi.

В данной статье раскрывается экономическая сущность калькулирования себестоимости продукции на текстильных предприятиях, её составные элементы, а также значение в управленческом учёте. Кроме того, проанализированы вопросы определения себестоимости продукции на основе правильного учёта сырьевых, трудовых и общепроизводственных затрат, характерных для текстильного производства. Также рассмотрены проблемы, возникающие при применении методов калькуляции, и предложены пути их устранения.

**Ключевые слова:** себестоимость продукции, калькуляция, текстильные предприятия, производственные затраты, управленческий учёт.

This article describes the economic essence of calculating product cost in textile enterprises, its structural components, and its importance in management accounting. In addition, the issues of determining product cost through the proper accounting of raw material, labor, and overhead production costs specific to textile manufacturing are analyzed. Problems encountered in the application of costing methods and proposals for their elimination are also presented.

**Keywords:** product cost, costing, textile enterprises, production costs, management accounting.

Bugungi kunda to‘qimachilik sanoati O‘zbekiston iqtisodiyotining yetakchi va strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur sohaning jadal rivojlanishi mamlakatda

sanoat salohiyatini oshirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta‘minlash hamda eksport hajmini kengaytirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda to‘qimachilik mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ulushini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

Ushbu jarayonda korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishda mahsulot tannarxini to‘g‘ri aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Mahsulot tannarxi korxonada faoliyatining eng muhim iqtisodiy ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lib, u ishlab chiqarish xarajatlari darajasini aks ettiradi hamda narx belgilash, foydani rejalashtirish, rentabellikni baholash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishda asosiy mezon sifatida xizmat qiladi. Tannarxning asossiz oshib ketishi mahsulot raqobatbardoshligining pasayishiga olib kelishi mumkin bo‘lsa, uni ilmiy asosda shakllantirish korxonada iqtisodiy samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni murakkab va ko‘p bosqichli xarakterga ega bo‘lib, u ip yigirish, to‘qish, bo‘yash, pardozlash hamda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini o‘z ichiga oladi. Har bir texnologik bosqichda xom ashyo, yordamchi materiallar, energiya resurslari, mehnat haqi va umum ishlab chiqarish xarajatlari shakllanadi. Ushbu xarajatlarni to‘liq, aniq va o‘z vaqtida hisobga olish mahsulot tannarxini haqqoniy aniqlashning muhim sharti hisoblanadi.

Shu sababli, to‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyatini chuqur o‘rganish, xarajatlarni tasniflash va ularni boshqaruv hisobi tizimi orqali samarali nazorat qilish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Tannarxni aniqlashning zamonaviy usullaridan foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, mahsulot sifatini oshirish va korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlash imkonini beradi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy bilishning umumqabul qilingan usullaridan keng foydalanildi. Xususan, iqtisodiy hodisa va jarayonlarning mazmunini chuqur o‘rganish maqsadida tahlil va sintez usullari qo‘llanildi. Ushbu usullar yordamida mahsulot tannarxini shakllantiruvchi omillar alohida-alohida tahlil qilinib, ularning o‘zaro bog‘liqligi va umumiy natijaga ta‘siri sintez orqali umumlashtirildi. Shuningdek, turli davrlar va korxonalar kesimida xarajatlar tarkibi hamda kalkulyatsiya usullarining o‘xshash va farqli jihatlari aniqlashda taqqoslash usulidan foydalanildi.

Bundan tashqari, tadqiqotda tizimli yondashuv usuli asosiy metodologik tamoyil sifatida qo‘llanilib, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoni yagona iqtisodiy tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Ushbu yondashuv orqali ishlab chiqarish xarajatlari, kalkulyatsiya obyektlari hamda boshqaruv qarorlarining o‘zaro bog‘liqligi aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish masalalariga bag‘ishlangan xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari chuqur tahlil qilindi. Xususan, boshqaruv hisobi va xarajatlarni hisobga olish nazariyasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo‘shgan C. Horngren, G. Foster hamda boshqa yetakchi xorijiy iqtisodchilarning ilmiy asarlari tadqiqotning nazariy-uslubiy asosini tashkil etdi. Shu bilan birga, mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqotlari o‘rganilib, ularning ilmiy qarashlari va amaliy tavsiyalaridan tadqiqot jarayonida keng foydalanildi. Mazkur manbalar tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tadqiqotda to‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibini o‘rganishda tahlil, sintez, taqqoslash va tizimli yondashuv usullaridan foydalangan. Xarajatlar tarkibi va kalkulyatsiya jarayoni bevosita va bilvosita xarajatlar kesimida tahlil qilindi. Shuningdek, boshqaruv hisobi va tannarxni aniqlash bo‘yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tadqiqotning nazariy asosini tashkil qildi. Ushbu metodologiya mahsulot tannarxini aniq baholash va korxonada boshqaruvi qarorlarini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Ushbu yondashuv orqali ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibi, resurslardan samarali foydalanish va har bir ishlab chiqarish bosqichining tannarxiga ta‘siri aniqlanib, kalkulyatsiya jarayonini optimallashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyati paydo bo‘ladi. Shu

bilan birga, tadqiqot natijalari to‘qimachilik korxonalarining moliyaviy barqarorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

Mahsulot tannarxining iqtisodiy mohiyati ishlab chiqarish jarayonida yuzaga keladigan barcha xarajatlarning yig‘indisi sifatida namoyon bo‘ladi. Mahsulot tannarxi — bu mahsulotni ishlab chiqarish hamda uni realizatsiya qilish bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan barcha moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlarning puldagi ifodasidir. Ushbu ko‘rsatkich korxonaning ishlab chiqarish samaradorligini, resurslardan foydalanish darajasini hamda moliyaviy natijalarini baholashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot tannarxini aniq va asosli hisoblash korxonalarining raqobatbardoshligini ta‘minlashning muhim omillaridan biri sanaladi.

To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxi asosan bir qator xarajatlardan shakllanadi. Ularga xom ashyo va materiallar xarajatlari, jumladan paxta tolasi, ip-kalava, bo‘yoqlar va yordamchi materiallar sarfi kiradi. Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida foydalaniladigan yoqilg‘i va elektr energiyasi xarajatlari, ishlab chiqarish ishchilarining mehnat haqi hamda ijtimoiy sug‘urta ajratmalari muhim ulushni egallaydi. Bundan tashqari, asosiy vositalarning eskirishi bilan bog‘liq amortizatsiya xarajatlari, ishlab chiqarish sexlari faoliyati bilan bog‘liq umum ishlab chiqarish xarajatlari hamda boshqaruv xarajatlari mahsulot tannarxining ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. Mazkur xarajatlarning to‘liq, aniq va asosli hisobga olinishi mahsulot tannarxining haqqoniy shakllanishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayoni ishlab chiqarish texnologiyasining murakkabligi va bosqichlarining ko‘pligi bilan tavsiflanadi. Shu sababli xarajatlar kalkulyatsiya jarayonida bevosita va bilvosita xarajatlarga ajratiladi. Bevosita xarajatlarga aniq bir mahsulot turi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘lgan xom ashyo xarajatlari va asosiy ishlab chiqarish ishchilarining mehnat haqi kiradi. Bilvosita xarajatlarga esa sex xarajatlari, umumzavod xarajatlari, xizmat ko‘rsatish bo‘limlari faoliyati bilan bog‘liq sarf-xarajatlar kiritiladi.

Ishlab chiqarish jarayonlarining ketma-ket bosqichlardan iboratligi tufayli to‘qimachilik sanoatida yarim tayyor mahsulotni kalkulyatsiya usulidan keng foydalaniladi. Ushbu usul orqali har bir texnologik bosqichda shakllangan xarajatlar aniqlanib, keyingi bosqichga uzatiladi. Bu esa tannarxni yanada aniq hisoblash va xarajatlar ustidan samarali nazorat o‘rnatish imkonini beradi.

Kalkulyatsiya tuzish vaqtiga ko‘ra dastlabki (reja) va yakuniy (hisobot) kalkulyatsiyaga bo‘linadi. Dastlabki kalkulyatsiya ishlab chiqarishni rejalashtirish, narx belgilash hamda kutilayotgan iqtisodiy natijalarni baholash uchun xizmat qiladi. Yakuniy kalkulyatsiya esa hisobot davrida yuzaga kelgan haqiqiy xarajatlar asosida tuzilib, reja va amaldagi ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi tafovutlarni aniqlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, amaliyotda to‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish jarayonida qator muammolar ham uchrab turadi. Jumladan, xom ashyo sarfi me‘yorlarining aniq va ilmiy asosda belgilanmaganligi tannarxning asossiz o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Umum ishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot turlari bo‘yicha taqsimlashdagi murakkabliklar ham tannarx aniqligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, zamonaviy avtomatlashtirilgan boshqaruv hisobi tizimlarining yetarli darajada joriy etilmaganligi xarajatlarni tezkor tahlil qilish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda.

Shu bois, to‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish tizimini takomillashtirish, xarajatlarni hisobga olishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish hamda me‘yoriy bazani takomillashtirish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, to‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish boshqaruv qarorlarini qabul qilishda muhim axborot manbai hisoblanadi. Ushbu jarayonni takomillashtirish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishda avtomatlashtirilgan boshqaruv hisobi tizimlarini joriy etish, xom ashyo va energiya resurslaridan samarali foydalanish, kalkulyatsiya usullarini ishlab chiqarish texnologiyasiga mos ravishda tanlash hamda har bir ishlab chiqarish bosqichi bo‘yicha tannarxni muntazam tahlil qilib borish zarur. Mazkur choralar mahsulot tannarxini kamaytirish, raqobatbardoshlikni oshirish va korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. 2023-yil. <https://lex.uz/docs/-6445145>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 13.04.2016 yildagi O‘RQ-404-son. <https://test.lex.uz/en/docs/-2931253>
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-mayidagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-71-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7486412>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-7330228>
5. Abdusalomova N.B., Temirov F.T. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. T.: Iqtisodiyot, 2021. 283 b.
6. Pardav M.Q. Boshqaruv hisobi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
7. Xolmatov B.A. Xarajatlar hisobi va mahsulot tannarxi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.
8. Jo‘rayev A.N. Korxonalarda tannarx kalkulyatsiyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
9. Pardayev A. “Boshqaruv hisobi”. O‘quv qo‘llanma – Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2002.
10. Xankeldieva G.Sh., SHakirova Yu.S. “To‘qimachilik sanoati korxonalarida eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish”, Monografiya, Fargona, 2021.
11. Muxtarov M.M. “To‘qimachilik sanoati korxonalarining iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirish” Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Andijon, 2023.
12. Pardayev A.X., Pardayeva Z.A. Boshqaruv hisobi. T.: “Tafakkur”, 2014
13. Abdukarimov I.T. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. – Toshkent: Sharq, 2021.
14. Ismoilov Sh.I. Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqarish. – Toshkent: Fan, 2020.
15. Karimov N.G. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.
16. Qodirov A.A. To‘qimachilik sanoatida iqtisodiy tahlil. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
17. Norma.uz — O‘zbekiston qonunchiligi bo‘yicha huquqiy axborot portali. <https://www.norma.uz>
18. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik bazasi. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
19. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat portali <https://gov.uz/uz/imv>